



LUG'ATLARDA KELITIRILGAN DINIY LEKSIK BIRLIKLARNING LINGVISTIK TAHLILI

Farmonova Mashhura

*Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 77-umumiy o'rta ta'lim maktabining
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada til xususiyalaridan bir leksik xususiyatni aniqlashda diniy atama va iboralarga murojaat qilingan. O'z navbatida tilning leksik birliklarning lingvistik tahlilini qilishda bir qadar lug'atlarga murojaat qilingan. Jumladan, B. Hasanovning "Qur'oni Karim so'zlarining arabcha-o'zbekcha ko'rsatgichli lug'ati", A. Nurmonovning "O'zbek tilshunosligi tarixi" hamda ustozimiz Sh. Mahmaraimovanning "O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'ati" kabi qo'llanmalaridan foydalanib diniy leksik birliklarning lingvistik tahliliga e'tibor qaratilgan. Shuningdek ba'zi diniy atamalarning o'ziga xos leksik xususiyatlari, etimologiyasi, hozirgi kundagi ahamiyati, qanday ma'noda ifodalanishi aks etgan.*

***Kalit so'zlar:** diniy atama va iboralar, diniy leksika, til sathlari, teolingvistika, diniy tushunchalar, diniy tushunchalar etimologiyasi.*

Diniy atama va iboralar tarixiylik xususiyatiga ega bo'lib, ular o'ziga xos lingvistik qatlamni tashkil etadi. Jumladan diniy atama va iboralar o'z qurilish tartibiga ega. Islom diniga oid har qanday so'z tuzilmasi, matn, vaholanki (hattoki biror ishni boshlashdan oldin ham), lug'at tuzilish tartibi bo'lsin, avvalo, *Bismillahir rohmanir rohiym* (Mehribon va rahmdil Alloh nomi bilan boshlayman) kalimasi bilan boshlanadi, so'ngra yaratganga hamd-u sano, Payg'ambar Muhammad alayhissalomga salovat aytilib, matn yakunlanadi. Dinga oid so'zlarni eshitganingizda arab tilining ta'siri yaqqol seziladi. Islom diniga oid asosiy so'zlar arab tilida yozilgani bois, diniy voizlar ham o'z nutqlarida Qur'on va hadislardan

iqtibos keltirishda shu tildan foydalanadilar. O'zbek tilida va'z o'qilayotganda ham arab tilining ta'sirini uchratishimiz mumkin.

Ilm-fan, madaniyat, dinning rivojlanishi natijasida arab tili nafaqat o'zbek tiliga, balki boshqa tillarga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Arab tiliga oid leksik birliklar Yevropa tillariga, xususan, ingliz, fransuz, nemis, rus tillariga ispan tili orqali o'tgan. Natijada arabcha internatsionalizmlar soni ortgan. Ayniqsa, diniy terminologiya baynalmilallikni namoyon etadi. Dinga oid atama va iboralar orasidan internatsionalizmlarni ajratib tasniflash jarayonida shunga amin bo'lish mumkinki, bunday atamalar ko'p miqdorni tashkil etadi. www.indifferentlanguages.com saytida Qur'on, islom, muslim, muftiy, shayx, fiqh, hayit, azon, hadis, haj, halol, hijob, imom, xutba so'zlarining 70 ga yaqin tillarda o'xshash talaffuzga va bir xil ma'noga ega ekanligi qayd etilgan. Bu jarayonni islom dinini dunyo bo'ylab keng tarqalganligi ta'sirida deb baholash mumkin.

Jahon tilshunosligida teolingvistik tadqiqotlar markazida diniy leksika bilan bog'liq masalalar turadi. Din bilan bog'liq leksik sistemani o'rganish, tahlil qilish, diniy terminlarning xususiyatlarini yoritish masalalari tilshunoslarning bir qator tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan bo'lib, ularning asosiy qismi rus tilshunosligiga to'g'ri keladi. Din masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar xristian diniga oid leksik birliklarning mavzuiy guruhlanishiga bag'ishlangan. O'zbek tilshunosligida ham diniy leksika izohi bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan va ularda dinga oid leksik birliklar islom dini nuqtai nazaridan o'rganilgan.

Diniy atama va iboralarning izohli lug'atini tuzishda lug'at tarkibidagi asosiy elementlar diniy tushunchalarni anglatuvchi so'zlardir. Ular, odatda, Allohga hamd-u sano, payg'ambarga salovat aytishda qo'llaniladigan so'z va jumlar, Qur'on oyatlaridan va hadislar tarkibidagi birliklardan iboratdir. Ular o'z va o'zlashgan qatlamlardan iborat leksik birliklar sanaladi. O'zbek tilining izohli lug'atida izohlangan so'zlarning asosiy qismi arabizm so'zlar hisoblanadi. Diniy leksikaning lug'aviy tarkibini bu turkum so'zlarning tashkil etishi tabiiy, albatta. Negaki, islom dinining qadimgi turkiy qavmlar, jumladan, o'zbek xalqi tomonidan qabul

qilinganligi bu tabiiylikning asosidir.

Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasining ma'lum bir qismini arab tiliga oid so'zlar tashkil qilishida uning din va shariat tili bo'lganligi muhim omil sanaladi. "...islom dini mahalliy xalqlar orasiga singdi va bu xalqlarning asosiy diniy e'tiqodiga aylandi. Arab dini singib, muqaddas e'tiqodiga aylana borgan sari arab tili ham Qur'on tili, islom tili sifatida "ilohiylasha" bordi. Islom aqidalariga chin dildan e'tiqod qilish, oilada diniy rasm-rusumlarni bajarish, masjid va madrasalarda diniy marosimlarni ado etish va ta'lim ishlari zamonaviy (klassik) arab tilida olib borildi. Natijada islom dinini targ'ib qilish bilan birga, arab tili ham yoyila bordi. Keltirilgan holler o'zbek tiliga bir qator diniy-mistik tushuncha va tasavvurlarni ifodalovchi so'zlarning kirishiga sababchi bo'ldi¹.

Islom dinining Markaziy Osiyo xalqlari hayotiga kirib kelishi va diniy e'tiqod sifatida mustahkam o'rnashishi xalqimizning diniy-ma'naviy dunyoqarashida keskin burilish yasadi. Qur'on g'oyalari va payg'ambar ko'rsatmalarini izohlashga bag'ishlangan maxsus ishlar – diniy atama va iboralar lug'ati tuzishdek katta bir ish maydonga kela boshladi. Bunda, dinga oid matnlar ichida uchraydigan so'z va iboralar Qur'on suralari va oyatlari, hadis, hikoyat, rivoyat shaklida bo'lib, ifoda va joylashish usuli, diniy til birliklarini qamrab olish doirasi, leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra lug'atlarning boshqa turlaridan ajralib turadigan bo'ldi.

Shuningdek, lug'atlarda forsizmlarga xos diniy leksik birliklar ham mavjud. Boisi, o'zbek xalqi asrlar davomida tojik xalqi bilan yonma-yon yashab kelganligi, urf-odatlari, yashash tarzi, diniy e'tiqodlari bir xilligiga ko'ra bu ikki millat hayotida o'zaro mushtarak tomonlar ko'p. Bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy qilganligi bois biridan ikkinchisiga so'zlar, iboralar o'tib turgan. Buning ustiga, turkiy davlatchiligimizningmuayyan davrida fors-tojik tili ish yuritish va ilmiy uslubda yetakchilik qilgani bois bu holatning kuzatilishi tarixiy haqiqatga mos keladi. Shu sababdan, o'zbek tilidagi diniy so'zlar leksikasida forscha-tojikcha

¹ Hasanov. B. Qur'oni karim so'zlarining arabcha-o'zbekcha ko'rsatkichli lug'ati. G'. G'ulom.: 1995.

soʻzlar ham maʼlum bir guruhni tashkil etadi.

Tilimizdagi diniy lugʻaviy birliklar faqat islom diniga daxldor tushunchalar ifodasi boʻlmaganligi, balki boshqa dinlarga ham aloqadorligi bois ularning maʼlum bir qismi xalqaro diniy-teologik atamalar sifatida qaraladi. Bu lugʻaviy elementlarning muayyan qismi qadimgi turkiy tillarga tegishli ekanligi esa xalqimiz diniy eʼtiqodining juda qadimiy ekanligidan dalolat beradi.

Izohli lugʻatdagi soʻzlarga mana shu etimologik tamoyil asosida yondashadigan boʻlsak, ularni quyidagi tartibda guruhlash maqsadga muvofiq:

-arabizmlar: *alhamdulillah*(h), *arafa*, *valiy*, *Jannat*, *Jahannam*, *jihod*, *zakot*, *zikr*, *ibodat*, *zohid*, *iftor*, *kalima*, *karomat*, *kaʼba*, *kofir*, *kufir* kabilar;

-forsizmlar: *banda*, *bomdod*, *buzruk*, *but*, *gunohkor*, *darvesh*, *dargoh*, *dil*, *doʻzax*, *paygʻambar*, *parvardigor*, *peshin* singari;

-arabcha-forscha yoki forscha-arabcha birikuvlar: *kalimagoʻy*, *mushkulikushod*, *obi zam-zam*, *qadamjo(y)*, *qiblagoh*, *qiroatxon*, *haromxoʻr* kabi;

-turkizmlar: *yorlaqamoq*, *jonliq*, *ziyorchchi*, *mazdakiylik*, *mazhabchilik*, *masalaxonlik*, *topinmoq*, *tugun*, *choʻqinmoq*, *yaratuvchi*, *oʻgirmoq*, *qiroatxonlik*, *qurbonlik*, *halol* singari;

-yunon, lotin va boshqa tillarga oid atamalar: *zabur*, *panteizm*, *paxsa*, *sekta* kabi.

Birgina arab tilidan oʻzlashgan leksik birliklarni olaylik. Ularning oʻzbek tili lugʻat fondiga kirib kelishi, shubhasiz, xalqimiz tarixida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bogʻliq hodisa, albatta. Masalaning bu jihatini bir chetga qoʻyib turib, biz ularning maʼlum qismi – diniy-teologik soʻzlarning tilimizdagi lingvistik tabiatini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Insonlar hayotida din va diniy tushunchalar milliy madaniyatning bir boʻlagi sifatida muhim oʻrin tutadi va bular tilda bor boʻyi bilan namoyon boʻladi. Shuning uchun ham bunday masalalarni oʻrganish, diniy nutqning leksik, frazeologik imkoniyatlari, lingvopragmatik, funksional va uslubiy xususiyatlari asosida ularning mavjud funksional uslublar doirasidagi oʻrnini belgilash va diniy soʻzlarning

pragmalingvistik, psixolingvistik, sotsiolingvistik belgilarini aniqlash bugungi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Shunday masalalar tadqiqi XX asrga kelib antroposentrik nazariyaga asoslangan til va inson omilining o'zaro mustahkam aloqasidan iborat bo'lgan diniy muloqot komponentlarini o'rganuvchi tilshunoslikning yangi yo'nalishi – teolingvistikaning shakllanishiga turtki bo'ldi. O'zbek tilshunosligida bu soha bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari so'nggi yillarda ko'zga tashlanmoqda.

Teolingvistika atamasi inglizcha theo – din, xudo va linguistics – tilshunoslik so'zlaridan olingan. Lug'atlarda teolingvistika atamasiga oid quyidagi ta'rifni uchratamiz: “Teolingvistika–diniy tilni o'rganuvchi fan”.
www.yuordictionary.com.

Lingvistika inson tilini o'rganuvchi ilm sifatida ajratiladi. Teolingvistika termini tarkibida ham inson tilini o'rganuvchi lingvistika atamasi mavjud bo'lib, unga theo atamasining qo'shilishi bu yangi yo'nalishning inson tilini o'rganuvchi badiiy va ilmiy asarlar tili kabi tushunchalar pragmatik qatoriga diniy atamalar, diniy iboralar tili, diniy nutq singari terminologik tizimning qo'shilishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

XX asrning 60-yillarida G'arbda teolingvistika to'g'risida ilk fikrlar shakllana boshladi. Teolingvistikaning mustaqil tarmoq sifatida rivojlanishida D. Kristal, J. Per van Noppen, J. Samarin kabi tilshunoslarning xizmatlari katta. Sharqda din va til masalalarini o'rganish ancha oldin boshlangan bo'lib, dinga oid lingvistik qarashlar “arab tilshunosligi” atamasi ostida Qur'oni karimni tadqiq qilish asnosida vujudga kelgan. “Arab tilshunosligi amaliy ehtiyoj natijasida, Qur'on nutqini to'g'ri talaffuz qilish ehtiyoji bilan, shuningdek, arablar va shuubiylar (eroniylar) o'rtasidagi arab tili yuzasidan mubohasasi jarayonida vujudga keldi”².

Rus va polyak tilshunoslaridan: K. Timofeev, Y. Mixaylova, M. Goryushina, S. Bulavina, I. Matey, M. Voytak, A. Gadamiskiylarning; turkologiyada N. Suyargulov, A. Serikbayeva, N. Sharyafetdinovalarning; o'zbek tilshunosligida N.

² Nurmonov A. Ozbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. 13-bet.

Uluqov, T. Yuldashev, M. Umarxo'jayev, M. Galiyeva, Sh. Mahmaraimova va Sh. Sultonovalarning tadqiqotlari teolingvistikani o'rganishda muhim manbalardan sanaladi. Shu o'rinda ustozimiz Sh. Mahmaraimovanning "O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'ati" da tadqiqotimiz mavzusiga doir qimmatli fikrlar bildirilgan. Ustoz ushbu lug'atida *ajina, Azozil, Azroil, alvasti, anqo, arsh, a'rofi, behisht, Dajjol, duldul, do'zax, Jabroil, jin, iblis, Isrofil, Malak, Munkar, Nakir, Odam Ato, farishta, xizr, chilton, shayton, Havvo* kabi 24 ta teonimga atroflicha izoh bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hasanov. B. Qur'oni karim so'zlarining arabcha-o'zbekcha ko'rsatkichli lug'ati. G'. G'ulom.: 1995.
2. Nurmonov A. Ozbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. 13-bet.
3. Sh. Mahmaraimovanning "O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual